

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

DURDUBAEVA ROZA MURATBAEVNA

**GAZLARNI ABSORBSION TOZALASH JARAYONIDA SUVLI
SOVUTISH QURILMASINI KORROZIYALANISHIGA QARSHI
INGIBITOR OLIH TEXNOLOGIYASI**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
technical sciences**

Durdubaeva Roza Muratbaevna

Gazlarni absorbsion tozalash jarayonida suvli sovutish qurilmasini
korroziyalanishiga qarshi ingibitor olish texnologiyasi..... 3

Дурдубаева Роза Муратбаевна

Технология получения ингибитора для защиты от коррозии водяного
охлаждающего устройства в процессе абсорбционной очистки газов..... 21

Durdubaeva Roza Muratbaevna

Technology for obtaining an inhibitor to protect against corrosion of the
watecooling device in the gas absorption purification process..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

DURDUBAEVA ROZA MURATBAEVNA

**GAZLARNI ABSORBSION TOZALASH JARAYONIDA SUVLI
SOVUTISH QURILMASINI KORROZIYALANISHIGA QARSHI
INGIBITOR OLIQSH TEXNOLOGIYASI**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T4363 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.bmti.uz) va «Ziyonet» Axborot – ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Beknazarov Hasan Soyibnazarovich
texnika fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Saydaxmedov Shamshidinxo‘ja Muxtorovich
texnika fanlari doktori, professor

Igankulova Nargisa Abduvalievna
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil 31 may soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84, faks: (+99865)223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (355- raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (99865)223-78-84.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17-may kuni tarqatildi.
(2025 yil 24-martdagi №1-raqamli reestr bayonnomasi).

S.F. Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor.

A.T. Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent.

H.B.Do‘stov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoda metallarni turli agressiv muhitlarda korroziyalanishini oldini olishning eng samarali usullaridan biri korroziya ingibitorlaridan foydalanishdir. Bizga ma'lumki, ko'pchilik ishlab chiqarishdagi qurilmalarning asosini metall va metallar asosidagi konstruksiyalardan iborat bo'lib, bularga bo'lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. Sanoatdagi metall konstruksiyalarining barqarorligini ta'minlash, ya'ni korroziyalanishdan himoya qilish bugungi kunning dolzarb muommolaridan biriga aylanib ulgurgan. Shuni ta'kidlash joizki, qo'llaniladigan korroziya ingibitorlar imkoni boricha quyi konsentratsiyali va ekologik jihatdan toza bo'lishi, shu bilan birgalikda iqtisodiy jihatdan arzon bo'lgan ingibitorlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda sanoati yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan mamlakatlarning neft va gazni qayta ishlash sanoat qurilmalarida vujudga keladigan korrozion oqibatlarini kamaytirishda ingibitorlar sintezining yangi usullari, texnologiyalarini takomillashtirish, ekologik talablarga mosligini ta'minlash maqsadida turli tarkibli ingibitor va ularning kompozitsiyalarini olish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mavjud xomashyo resurslaridan foydalanib, metallar korroziyasini oldini oluvchi yuqori texnik xususiyatlarga ega bo'lgan ingibitorlar va antikorrozion qoplamalar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyolar va ikkilamchi birikmalar asosida olingan korroziya ingibitorlaridan neft va gaz, kimyo sanoati sohalarining turli agressiv va suv bilan sovutish yoki isitish tizimlarida metallar korroziyalanishini oldini olishda ingibirlash samaradorligi yuqori bo'lishi bilan bir qatorda ekologik jihatdan zararsiz bo'lgan korroziya ingibitorlarini yaratish borasida ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida «Mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslardan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar olish texnologiyalarini yaratish»¹ ga qaratilgan muhim vazifalari belgilangan. Bu borada metall konstruksiyalarini korroziyasining oldini olishda iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz bo'lgan korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish hamda mavjud texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm fan samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3264-son «Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Korroziya ingibitorlarini yaratish va ularning ingibirlash xossalarni tadqiq qilish boʻyicha P.Singh, E.E.Ebenso, L.O.Olasunkanmi, I.B.Obot, S.Paul, I.Koley, S.A.Muraveva, V.G.Mel'nikov, V.V.Egorov, Y.I.Kuznetsov, G.Y.Kazanskaya, N.V.Tsirulnikova, R.R.Annand, R.M.Hurd, N Hackerman., V.Y.Chernov, MDH mamlakatlaridan I.L.Rozenfeld, D.N.Borisov, A.V.Agafonkin, G.N.Danilova, A.R.Farxutdinova, O.A.Chepkasova, Yu.I.Kuznetsov, V.I.Vigdorovich, A.I.Fedotova, V.I.Levashova, Z.A.Tadjixodjaev hamda Oʻzbekiston olimlaridan H.S.Beknazarov, A.T.Djalilov, R.S.Tillayev, T.D.Siganov, F.K.Qurbanov, A.J.Xolikov, X.I.Akbarov, A.Ikramov, D.Yusupov, X.I.Qodirov, Z.I.Nurilloev, A.X.Narzullaev, N.B.Eshmamatova, N.Yodgorov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Ushbu olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tabiiy manbalar va sanoat mahsulotlari asosida korroziya ingibitorlarining yangi avlodini yaratish hamda ularning turli agressiv muhitlarda qoʻllashga doir nazariy va amaliy asoslari keltirilgan boʻlib, shuningdek, korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari hamda ular asosida samarali qurilmalar sanoat korxonalarida zamonaviy texnologiyalar qatorida amaliyotga joriy etilgan.

Biroq, xorij va mamlakatimiz amaliyotidan maʼlumki hozirgi vaqtda gazlarni absorbsion tozalash jarayonida suvli aylanma tizimlarda poʻlat materiallar uchun ingibirlash mexanizmlarini oʻrganish boʻyicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq x/sh №12-06 «Mahalliy xomashyolar asosida yangi samarali oligomer korroziya ingibitorlarini ishlab chiqish va qoʻllash» (2007 y.) mavzusidagi xoʻjalik shartnomasi hamda A12-005 «Mahalliy xomashyolar asosida yangi samarali korroziya ingibitorlarini olish va ularni qoʻllash» (2015-2017 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gazlarni absorbsion tozalash jarayonida suvli sovutish qurilmasini korroziyalanishiga qarshi ingibitor olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Muborak GQIZ ning texnologik tizimlarida uchraydigan korroziya jarayonlarini oʻrganish va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash;

fosfor (V) xlorid va sianur kislota asosida korroziya ingibitorlarini sintez qilishning optimal sharoitlarini aniqlash;

korroziya ingibitorlarining samaradorligini elektrokimyoviy va gravimetrik usullar yordamida tadqiq qilish hamda ularning po‘lat yuzasiga adsorbsiya izotermalari va termodinamikasini tadqiq qilish;

korroziya tezligiga va himoyalash darajasiga harorat hamda konsentratsiyaning ta‘sirini o‘rganish orqali ingibirlash mexanizimini aniqlash;

gazlarni absorpsion tozlashda sovitish qurilmasining korroziyasiga qarshi samaradorligi yuqori bo‘lgan korroziya ingibitorini olish texnologiyasini ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida Muborak GQIZ dagi suvli sovutgich, St20 markali po‘lat, fosfor (V) xlorid va sianur kislota kabi moddalar olingan.

Tadqiqotning predmetini korroziya ingibitorining ingibirlash mexanizmini aniqlash, turli konsentratsiya va haroratlarda ingibirlash samaradorligi hamda himoyalash darajalarini tadqiq qilish, shuningdek, korroziya ingibitorini olish texnologiyasi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida korroziya ingibitorining tuzilishi hamda fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashda IQ-spektroskopiya va ingibirlash samaradorligini aniqlashda elektrokimyoviy va gravimetrik, sirt morfologiyasini o‘rganishda skanerlovchi elektron mikroskop, kvant-kimyoviy va atom kuchi mikroskopi kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fosfor (V) xlorid va sianur kislota asosida yangi tarkibli PSK-1 markali korroziya ingibitori sintez qilingan va sintez sharoitining kinetikasi aniqlangan;

sintez jarayoni kinetikasi asosida fosfor (V) xlorid va sianur kislota 1:5 mol nisbati, harorat 90-100°C da va 48 soat vaqt davomiyligida maksimum 87,15% unumga erishishi isbotlangan;

sintez qilib olingan PSK-1 korroziya ingibitorining ingibirlash mexanizmini kinetik va termodinamik qonuniyatlar asosida, ingibirlash samaradorligini gravimetrik va elektrokimyoviy usullar yordamida, sirt morfologiyasini esa skanerlovchi elektron mikroskop kabi usullar yordamida aniqlangan;

PSK-1 markali korroziya ingibitorini St20 markali po‘lat namunalariga 333 K da ingibitor konsentratsiyasi 50-200 mg/l bo‘lgan holda, ingibirlash samaradorligi 93,6-97,10 % ekanligi aniqlangan;

gazlarni absorpsion tozalash jarayonida suvli sovutish qurilmasining korroziyasiga qarshi PSK-1 markali korroziya ingibitorini olish va qo‘llash texnologiyasi amaliy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fosfor (V)-xlorid va sianur kislota asosidagi korroziya ingibitorini sintez qilishning optimal texnologik parametrlari ishlab chiqilgan;

fosfor (V) xlorid va sianur kislota asosida sintez qilingan korroziya ingibitorining tarkibi va tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

korroziya ingibitorining samaradorligi elektrokimyoviy va gravimetrik usullar yordamida o'rganilgan hamda korroziya ingibitorining po'lat yuzasiga adsorbsiya izotermalari va termodinamikasi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalar ishonchliligi zamonaviy usul va vositalar yordamida nazariy hisob kitoblarning eksperimental natijalar bilan uyg'unligi, termodinamik, kinetik va adsorbsion nazariyalar asosida ingibitorining samaradorligi aniqlanganligi, hamda laboratoriya olingan natijalar sanoat – sinov tajribalari davomida tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, fosfor (V) xlorid va sianur kislota asosida korroziya ingibitori sintez qilinganligi, uning tuzilishi, optimal nisbatlari, fizik-kimyoviy xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi, shuningdek, ingibirlash mexanizmini aniqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, sintez qilingan PSK-1 markali korroziya ingibitorini neft va gaz sanoatining turli agressivligi yuqori bo'lgan muhitlarda hamda aylanma suvli tizimlarda po'latni korroziyadan yuqori darajada himoyalab, metall konstruksiyalarini uzoq muddat davomida samarali ishlash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gazlarni adsorbsion tozalash jarayonida suvli sovutish qurilmasining korroziyalanishiga qarshi ingibitor samaradorligi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

fosfor (V) xlorid va sianur kislota asosida yangi navli korroziya ingibitori sintez qilish usuli «Muborak gazni qayta ishlash» zavodining “2021-2025-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati”ga kiritilgan («Muborak gazni qayta ishlash» zavodining 2022-yil 8-apreldagi №110/GK-04-son ma'lumotnomasi). Natijada, St20 markali po'lat namunalariga 333 K da ingibitor konsentratsiyasi 50-200 mg/l bo'lgan holda, ingibirlash darajasi 93,6-97,10 % samaradorlikka erishish imkonini bergan;

fosfor (V) xlorid asosida sintez qilingan yangi navli PSK-1 korroziya ingibitorini olish texnologiyasi «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ ning “2022-2025-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati” ga kiritilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ ning 2022-yil 11-maydagi №23010107/342-son ma'lumotnomasi). Natijada, sintez qilingan PSK-1 korroziya ingibitorini kislotali yuvishdan hosil bo'luvchi agressiv kislotali-tuzli chiqindi suvlarni o'tkazuvchi va saqlovchi po'lat konstruksiyalarni korroziyadan himoyalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-amaliy, shu jumladan 7 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini

chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Neft-gaz, kimyo sanoatida qo‘llaniladigan turli ingibitorlar bilan ingibirlashning istiqbolli yo‘nalishlari va ularning tahlili”** nomli birinchi bobida mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Ma‘lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarkibida fosfor va azot saqlagan oligomer korroziya ingibitorlarini olish”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo‘llanilgan boshlang‘ich materiallarning xususiyatlari, tadqiqot usullari hamda sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy xossalari o‘rganish, IQ-spektroskopiya usullaridan foydalangan holda sintez qilingan birikmalarning tuzilishini aniqlashga yondashuvi tasvirlangan. Bundan tashqari, korroziya ingibitorlarining ingibirlash samaradorligi va mexanizmini aniqlashda elektrokimyoviy, gravimetrik, adsorbsion hamda termodinamik tadqiqot usullari keltirilgan.


Korroziya ingibitorini sintez qilish uchun fosfor (V) xlorid va sianur kislota ishtirokidagi reaksiya 48 soat vaqt davomida metanol erituvchisida olib borilgan.

Ushbu reaksiyaning eng muhim parametrlaridan biri bu harorat bo‘lib, bunda harorat 90 - 100°C harorat oralig‘ida olib borildi. Dastlab sianur kislota 5 mol nisbatda olib kolbaga solib, ustiga metanoldan eriguncha quyildi. So‘ng ozgina harorat berib qizdirib magnitli aralashtirgich bilan aralashtirib turildi. Keyin ustiga PCl_5 dan oz-ozdan solib reaksiya boshqarib turiladi. Dastlab aralashma sariq rangda, ma‘lum vaqtdan so‘ng yashil rangga o‘tdi. 1 soatdan so‘ng aralashma quyushib boshlaydi. Reaksiya natijasida ajralgan suyuq va quyuq faza filtr qog‘ozida ajratiladi. Suyuq faza bizning tadqiqot ishimiz asosida olingan korroziya ingibitori bo‘lib qisqacha PSK-1 deb nomlandi.

PSK-1 markali korroziya ingibitorini olishning reaksiya tenglamasi quyida keltirilgan:



Sintez qilib olingan PSK-1 markali korroziya ingibitori IQ-spektroskopiyada tahlil qilindi.



1-rasm. Fosfor (V) xlorid va sianur kislota asosida olingan PSK-1 markali korroziya ingibitorning IQ-spektroskopik tahlili

Tahlil natijalariga ko‘ra, PSK-1 markali korroziya ingibitorining IQ spektrida gidroksil guruhlar OH⁻ 3055,24 va 3203,76 sm^{-1} keng to‘lqin tebranish sohada va -C=N- bog‘lari 1693,50 sm^{-1} sohalarida paydo bo‘lgan. P-O-C bog‘lari esa 1296,16 sm^{-1} tebranish sohasida paydo bo‘lgan.

Dissertatsiyaning **“Sintez qilingan PSK-1 markali korroziya ingibitorining ingibirlash jarayonlarini tadqiq qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida sintez qilingan korroziya ingibitorlarining ingibirlash samaradorligini elektrokimyoviy va gravimetrik, ingibirlash mexanizmini termodinamik va kinetik, ingibitorlarning po‘lat yuzasiga ta‘sir mexanizmlarini esa skanerlovchi elektron mikroskop va atom kuchi mikroskoplari yordamida o‘rganilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Olingan korroziya ingibitorlari turli kislotali va ishqoriy muhitda 09G2C, 12X18N10T va St20 markali po‘latlarda korroziya jarayonlarining sinov tadqiqot ishlari olib borildi.

Korroziya ingibitorlarining ingibirlash mexanizmini va samaradorligini CS-350 markali potentsiostatida qutblanish egri chiziqlarini o‘lchash orqali ham o‘rganildi. Bunda, po‘latning ingibitorli va ingibitorsiz eritmadagi potentsiallarining farqidan po‘lat elektrodi yuzasining ingibirlanish samaradorligini aniqlash mumkin. Ushbu jarayonga beriladigan tokni korrozion tok deb ham yuritiladi. Korroziya ingibitori mavjud bo‘lgan eritmalarda po‘lat elektrodining yuzasi ingibirlanishi natijasida korrozion tok miqdori sezilarli darajada kamayishini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

PSK-1 markali korroziya ingibitorining fon-1 eritmadagi turli haroratlarda 360 soat davomida gravimetrik usulda aniqlangan tormozlash koeffitsienti (γ), sirtni to‘la qoplash darajasi (θ), himoyalash darajasi (η) qiymatlari


Ingibitor nomi	T, (K)	C, (mg/l)	K, gr/(sm ² ·soat)	γ	η , (%)	θ
PSK-1	313	-	1,53	-	-	-
		50	0,336	4,55	95,6	0,9567
		100	0,253	6,05	96,03	0,9603
		150	0,17	9	98,0	0,9805
		200	0,107	14,29	98,9	0,9896
	323	-	1,77	-	-	-
		50	0,373	4,74	94,23	0,9423
		100	0,272	6,38	95,64	0,9564
		150	0,185	9,56	97,87	0,9787
		200	0,121	14,62	98,93	0,9893
	333	-	1,93	-	-	-
		50	0,402	4,8	93,62	0,9362
		100	0,285	6,77	94,43	0,9443
		150	0,191	10,1	96,32	0,9632
		200	0,128	15,07	97,10	0,9710

Gravimetrik usulda asosiy agressiv muhitlar uchun fon-1(graderni suvi) va fon-2 (8 % li xlorid kislota) eritmaları sifatida optimal konsentratsiyasini aniqlash uchun ingibitorlarning turli konsentratsiyalarida tadqiqotlar olib borildi. Bunda sinovdan o‘tkazilayotgan metall, eritmaga ingibitor qo‘shilgan va qo‘shilmagan


holatdagi massa yo‘qotishlari farqiga qarab aniqlandi. Tadqiqotlar 50, 100, 150, 200 mg/l konsentrsiyalarda olib borildi va 200 mg/l konsentrsiya optimal konsentrsiya deb olindi.

Yuqoridagi 1-jadval natijalaridan kelib chiqib 333 K haroratda ingibitorli va ingibitorsiz eritmalarda korroziya tezligi va himoyalash samaradorligining konsentrsiyaga bog‘liqligini 2,3-raslarda ko‘rish mumkin.

Raslarda sintez qilingan PSK-1 korroziya ingibitori sovutish tizimidagi ishchi suv ingibitorli va ingibitorsiz eritmalarda 333 K haroratda korroziya ingibitorini 200 mg/l (0,2%) qo‘shilganda uning korroziya tezligi 0,128 g/sm²·s ni, himoyalash samaradorligi 97,10 % ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. 333 K haroratda PSK-1 korroziya ingibitorining fon-1 eritmada turli konsentrsiyadagi korroziya tezligi




3-rasm. 333 K haroratda PSK-1 korroziya ingibitorining fon-1 eritmada turli konsentrsiyadagi ingibirlash samaradorligi

3-rasmda turli haroratlarda η (%) ning ingibitor konsentratsiyasiga nisbatan grafigi ko'rsatilgan. Grafiklarni o'rganish PSK-1 konsentratsiyasi 50 mg/l dan ko'tarilganda η (%) ning dastlabki tez o'sishini ko'rsatadi, lekin ingibitor konsentratsiyasi yanada ortishi bilan ingibirlash samaradorligi biroz oshib boradi. Bu PSK-1 ning past konsentratsiyalarda ham samarali ingibitor sifatida harakat qilishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, harorat oshishi bilan ingibirlash samaradorligi ma'lum darajada sekin boradi.

Ingibirlash samaradorligi harorat oshishi bilan pasayib borishini metallarning erishi jarayonining ortishi nuqtai nazardan tushunish mumkin, yuqori haroratlarda ingibitor molekularining desorbsiya tezligi ortadi.

4-rasmda fon-2 eritmasida 0,02% konsentratsiyada Flogart MS6217 va PSK-1 ingibitorlari ishtirokida 333 ± 1 K da St20 po'lati uchun 1 soatdan keyin o'lchangan qutblanish egri chiziqlari taqqoslangan.

HCl eritmasiga ikkala korroziya ingibitorlari qo'shilishi PP egri chiziqlarining ham anodik, ham katodik shoxlari uchun ingibitorsiz eritma uchun egri chiziqqa nisbatan pastroq oqim zichligiga olib keladi. Tafel qiyaliklari va korroziya potentsiali deyarli o'zgarishsiz qoldi. PSK-1 va Flogart MS6217 korroziya ingibitorlari bir vaqtning o'zida korroziya jarayoniga anodik va katodik hissalarini kamaytiradigan aralash ingibitor sifatida ishlaydi.



4-rasm. 0,02% konsentratsiyada Flogart MS6217 va PSK-1 korroziya ingibitorlari fon-2 da 333 ± 1 K da St20 po'lati uchun 1 soatdan keyin qayd etilgan qutblanish egri chiziqlari

2-jadvalda E_{corr} qiymatlari va J_{corr} korroziya oqimi zichligi bilan birga polarizatsiya ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida olingan natijalar mavjud.

Sintez qilingan PSK-1 markali korroziya ingibitorini import qilinayotgan Flogart MS6217 markali korroziya ingibitori bilan solishtirilgan natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

333 ± 1 K da 0,02 % Flogart MS6217 va 0,02 % PSK-1 o'z ichiga olgan fon-2 eritmasida St20 po'latining qutublanish egri chiziq tahlil natijalari

Ingibitor nomi	E_{corr} (mV)	J_{corr} ($\mu A cm^2$)	$-bc$ (mV/dec)	ba (mV/dec)	R_p Ωcm^2	η %
PSK-1	-0,570	143,2	165	136	254,3	97,10
Flogart MS6217	-0,565	256,3	165	136	231,8	92,5

Ushbu ma'lumotlar PSK-1 ning quyi konsentratsiyalarda ham yuqori ingibirlash samaradorlikni namoyon qilganligi ushbu ingibitor tarkibida fosfor va azot atomlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Hozirgi vaqtda korroziya ingibitorlarining termodinamik va kinetik tadqiqot natijalari muhim jaryonlari hisoblanadi. Shundan kelib chiqib PSK-1 markali korroziya ingibitorlarining kinetik parametrlarini o'rganish, ishchi eritma sifatida suv bilan sovutish tizimidagi graderniy suvi va HCl kislotali muhitlarda o'rganildi. Arrenius tenglamasidan foydalanib tarkibida ingibitor mavjud bo'lgan va mavjud bo'lmagan eritmalarning aktivlanish energiyasi, entalpiya va entropiya qiymatlari hisoblab topildi. Olingan korroziya ingibitorlari 50, 100, 150 va 200 mg/l konsentratsiyadagi aktivlanish energiyalari o'rganildi.

Korroziya ingibitorining ingibirlash mexanizimi tushunchalarini keng yoritishda aktivlanish energiyasi (E_a), entalpiyasi (ΔH) entropiyasi (ΔS) kabi turli parametrlarini Arrenius grafigi bilan izohlashda keng qo'llaniladi va uning matematik ko'rinishi quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:


$$C_R = Ae^{-E_a/RT} \quad (1)$$

$$C_R = \frac{RT}{Nh} e^{\frac{\Delta S_a^0}{R}} e^{\frac{-\Delta H_a^0}{RT}} \quad (2)$$

bu yerda: C_R —korroziya tezligi, mm/yiliga; A —jarayon uchun Arrenius doimiysi; R —universal gaz doimiysi (8,314 J/mol·K); T —kelvin shkalasi bo'yicha Arrenius tenglamasi yordamida korroziya ingibitorlarining graderniy suvidagi haroratga bog'liqligi aniqlanadi; N —Avogadro soni ($6,02 \cdot 10^{23}$); h —Plank doimiysi ($6,626 \cdot 10^{-34}$ m²kg/s).

1 M HCl muhitda po'lat sirtining ingibitorsiz va ingibitorli muhitlardagi aktivlanish energiyalari, entalpiya va entropiya kabi kinetik parametrlari o'rganildi.

5-rasmda PSK-1 markali korroziya ingibitorining fon-1 muhitdagi aktivlanish energiyasi uchun Arrenius grafigi keltirilgan. Bunda ingibitorsiz va ingibitorli muhitlardagi lgK ning 1000/T ga bog'liqligidan E_a qiymatlari topildi.



5-rasm. PSK-1 markali korroziya ingibitorining fon-1 muhitdagi aktivlanish energiyasi uchun Arrenius grafigi

3-jadvalda ingibitorsiz eritmadagi aktivalanish energiyasi va entalpiya qiymatlari E_a 40,88 kJ/mol⁻¹ va ΔH_a 139,77 kJ/mol⁻¹ ni tashkil qilgan.


3-jadval

PSK-1 markali korroziya ingibitori ta'sirida St20 po'lat uchun fon-1 muhitdagi aktivlanish parametrlari

Inhibitor konsentratsiyasi, mg/l	E_a (kJ/mol ⁻¹)	ΔH_a (kJ/mol ⁻¹)	ΔS_a (kJ/mol ⁻¹ K ⁻¹)
0.0	40,88	139,77	363,43
50	6,66	22,98	-101,84
100	2,20	7,66	-157,37
150	1,65	5,74	-166,94
200	1,58	4,77	-179,28

Agar konsentratsiya 200 mg/l yetkanda esa E_a 1,58 (kJ/mol⁻¹) va ΔH_a 4,77 (kJ/mol⁻¹) gacha kamaygan. ΔS_a 363,43 (kJ/mol⁻¹K⁻¹) dan -179,28 (kJ/mol⁻¹K⁻¹) gacha tushgan. Bu esa St20 po'latning erish vaqtida ingibirlanishini va xemosorbsiya jarayoni borishini tasdiqlaydi.

Metall yuzasining ingibitorli eritmada ingibirlanishiga sabablardan biri bu korroziya ingibitorining yuza adsorbsiyalanishi ekanligini bir qancha tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etilgan. Korroziya ingibitori tarkibida erkin ionlar bo'lishi zaryadlarni tashishga yoki funksional guruhlarining bo'lishi manfiy zaryadlar evaziga metall yuzasi bilan donor-akseptor mexanizmi orqali bog'lanish sodir bo'ladi.



6-rasm. PSK-1 korroziya ingibitorining (a) Langmuir, (b) Frumkin va (c) Tyomkin izotermasi va (d) ΔG°_{ads} ning haroratga bog‘liqligi grafigi.

PSK-1 korroziya ingibitorining metall yuzasida adsorbsiyasi Tyomkin (6-rasm a), Frumkin (6-rasm b) va Langmuir (6-rasm c) izotermalari bo‘yicha chizilgan. Olingan natijalarga ko‘ra Frumkin, Tyomkin va Langmuir izotermalarining qiymatlari solishtirilganda Langmuir izotermasining qiymati 0,99 dan yuqori bo‘lgan va bu esa bizga termodinamik parametrlarni hisoblash uchun eksperimental ma’lumotlarga mos kelishini ko‘rsatadi. PSK-1 markali korroziya ingibitorlari uchun Langmuir bilan birgalikda Frumkin va Tyomkin izotermalari ham o‘rganildi.


Turli haroratda korrelyatsion koeffitsiyentning qiymatlari olindi. 7a va 7b rasmlardan ko‘rishimiz mumkinki, Frumkin va Tyomkin adsorbsiya izotermalarining korrelyatsion koeffitsiyentlarning qiymatlari 1 ga yaqin yaqin emasligi sababli adsorbsiya jarayoni ushbu izotermalar bo‘yicha bormasligini ko‘rsatdi.

Po‘lat yuzasining skanerlovchi elektron mikroskop va atom kuchi mikroskopi yordamida morfologik tahlili qilinganda po‘lat o‘lchamlari $2,2 \text{ sm} \times 1,2 \text{ sm} \times 1 \text{ sm}$


bo‘lgan namunalari turli markadagi (№400–№1200) qum qog‘ozlari bilan ishlov berilgan. Ishlov berilgandan keyingi namunalar turli konsentratsiyali ingibitorli va ingibitorsiz eritmalarda 120 soatdan 360 soatgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida amaliy tajribalar o‘tkazilgan. Amaliy tajriba uchun olingan po‘lat namunasining 7-rasmda amaliy tajribagacha bo‘lgan foto surati tasvirlangan.



7-rasm. Skanerlovchi elektromikroskop yordamida olingan po‘lat St20 sirtining dastlabki holati.




8-rasm. PSK-1 markali korroziya ingibitorining-200 mg/l konsentratsiyalarda fon-1 muhitdagi SEM fotosurati.



9-rasm. Po‘lat namunasining ingibitorsiz eritmadagi olingan 50 nm kattalikdagi SEM fotosurati.

8-rasmda PSK-1 korroziya ingibitori qo‘shilgan eritmada olingan po‘lat namunasi keltirilgan, 9-rasmda esa po‘lat namunasining texnik suvda ingibitorsiz holatda olingan namunasi keltirilgan. Har ikkala jarayonda vaqt davomiyligi 360 soatga teng. Quyida 333 K haroratda turli xil konsentratsiyada amaliy tajriba sinovlari o‘tkazilgan po‘lat namunasining SEM va element analiz natijalari tahlil qilingan.

8-rasmdan ko‘rinib turibdiki 200 mg/l konsentratsiyada korroziya ingibitorining samaradorligi yuqori ekanligini ya’ni, po‘lat tarkibida temirning miqdori past konsentratsiyali namunalar bilan solishtirganda yuqori bo‘lib, bu PSK-1 markali korroziya ingibitorining samarali ingibirlovchi xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Dissertatsiyaning **“PSK-1 markali korroziya ingibitorini olish va uni qo‘llashning texnologik sxemasi hamda uning iqtisodiy samaradorligini hisoblash”** deb nomlangan dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“PSK-1 markali korroziya ingibitorini olish va uni qo‘llashning texnologik sxemasi hamda uning iqtisodiy samaradorligini hisoblash”**ga bag‘ishlangan. Sintez qilib olingan PSK-1 markali korroziya ingibitorini olishning texnologik sxemasi 10-rasmda keltirilgan.




10-rasm. PSK-1 markali korroziya ingibitorini olishning prinsipial texnologik sxemasi

1,2-fosfor (V) xlorid va sianur kislota uchun sig‘im; 3,4-hosil bo‘lgan mahsulot uchun sig‘im; 5,7-reaktorlar; 6,10-filtrlar; 8,9- nasoslar; 11-quritgich; 12-maydalagich.

Fosfor (V) xlorid va sianur kislota asosida retsept bo‘yicha o‘lchangan EMK R-1000 markali 5 reaktorga 1 va 2 sig‘imlardan boshlang‘ich mahsulotlar, ya‘ni fosfor (V) xlorid va sianur kislota solib, aralashtirib turgan holda reaksiya olib borildi. Reaksiya issiqlik yutilishi bilan boradi. Shuning uchun reaksiyani olib borishda haroratni 90-100 °C oralig‘ida olib borish tavsiya etiladi. Ikkita boshlang‘ich moddalar o‘zaro ta’sirlashishi natijasida reaktion mahsulot hosil bo‘ladi va 3-reaktorda yig‘ila boshlaydi. Reaksiya natijasida hosil bo‘lgan mahsulotni qo‘shimchalardan ajratish uchun distillangan suv bilan yuvib 6- filtr yordamida ajratib olinadi. So‘ngra hosil bo‘lgan mahsulot 7-reaktorga solinadi. 7-reaktordagi aralashma 1 soat davomida 90°C aralashtirib turgan holda olib boriladi, bunga sabab yuvish jarayonida qolgan suvni bug‘latib yuborishdir bu suv 4-idishga yig‘ib olinadi.

Reaksiyaning davom etish vaqti taxminan qoldiq suvning miqdoriga qarab olib boriladi. Olingan mahsulot nasoslar orqali 10-filtr orqali ajratib olinib quritiladi va hosil bo‘lgan korroziya ingibitori qadoqlash uchun yuboriladi. Qadoqlangan mahsulot ingibitor sifatida ishlatiladi.

Barcha tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, ya‘ni metallarda agressiv ta’sir qiluvchi suv tarkibidagi agressiv komponentlar ta’siri natijasida vujudga keladigan korroziyaga qarshi 11-rasmda ko‘rsatilgan ingibirlash texnologik sxemasi taklif qilindi.



11 - rasm. Gazlarni absorbsion tozalashda qobiq quvurli issiqlik almashtirgich qurilmasining korroziyon yemirilishiga qarshi ingibirlash texnologik sxemasi

1-PSK-1 korroziya ingibitori uchun sig'im; 2-nasos; 3-issiqlik almashtirgich; I-sovutish uchun suv; II-sovutiladigan suvning chiqish joyi; III - sovutiluvchi agent; IV-sovutilgan agent.

Texnologik sxemada korroziya jarayoni asosan qobiq-quvurli 3-son issiqlik almashtirgichda yuz berishi aniqlanganligi sababli undagi sovutuvchi agentga diafragmal nasos 2 orqali PSK-1 korroziya ingibitori 1-sig'indan kerakli konsentratsiyada haydaladi. Sovutuvchi suvning eritmasiga qarab, texnologik tarmoqlardagi hajmini inobatga olgan holda konsentratsiyasi 0,02 % konsentratsiyadagi korroziya ingibitoridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1 tonna PSK-1 korroziya ingibitorini ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo narxi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

1 tonna PSK-1 korroziya ingibitori narxining va FLOGARD MS6217 markali korroziya ingibitori narxining strukturasi

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	Miqdori, kg	Bir birligining narxi, so'm	Umumiy yig'indi, so'm
1	PSK-1	kg	1000	34706,6	34 706 574
Jami:					34 706 574
2	FLOGARD MS6217	kg	1000	43 000	43 000 000
Jami:					43 000 000

Bunda 1 tonna PSK-1 ingibitorini ishlab chiqarish uchun faqat boshlang'ich moddalarga 34 706 574 so'm sarflanadi.

Bu qiymat, hozirda import qilinayotgan FLOGARD MS6217 (Indiya) korroziya ingibitorining 1 tonnasi uchun belgilangan 43 000 000 so'mlik narxdan 9 952 111,2 so'mga arzonroqdir.

XULOSA

1. “Muborak gazni qayta ishlash” zavodida gazlarni absorbsion tozalashda suvli sovutish qurilmasining korrozion sabablari aniqlandi. Natijada tarkibida azot va fosfor atomlari saqlovchi korroziya ingibitori, aylanma suv tarkibidagi turli agressiv komponentlarga qarshi yuqori samarali ekani isbotlandi va ushbu tarkibli ingibitor sintez qilish tavsiya etildi.

2. Korroziya ingibitori olishning maqbul rejimi - fosfor (V) xlorid va sianur kislota 1:5 mol nisbatda, harorat 90-100°C va jarayon davomiyligi 48 soatga teng ekanligi isbotlandi.

3. Sintez qilingan PSK-1 korroziya ingibitorining tarkibi va tuzilishi IQ-spektroskopiyasi hamda xossalari skanerlovchi elektron mikroskop yordamida, ingibirlash qiymati esa atom-kuchi mikroskopi va kvant-kimyoviy usullar yordamida aniqlandi.

4. Sintez qilingan ingibitorning korroziyadan himoyalash samaradorligi 97,10 %, xorijiy Flogard MS6217 markali korroziya ingibitorining esa 92,5 % bo‘lib, xususiyatlari bilan taqqoslash orqali uning raqobatbardoshligi isbotlandi.

5. Sintez qilingan PSK-1 korroziya ingibitori gravimetrik usulda 200 mg/l qo‘shilganda 333 K haroratda korroziya tezligi $0,128 \text{ g/sm}^2 \cdot \text{s}$ ni, tormozlash koeffitsiyenti 15,07 ni, himoyalash samaradorligi 97,10 % ekanligi isbotlandi.

6. Nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijasida yangi tarkibli PSK-1 markali korroziya ingibitorini olishning prinsiplial texnologik sxemasi hamda gazlarni absorbsion tozalash jarayonida suvli sovutish qurilmasining korroziyalanishiga qarshi ingibirlashning texnologik sxemasi ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/28.02.2022.Т.101.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
БЕРДАХА**

ДУРДУБАЕВА РОЗА МУРАТБАЕВНА

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ИНГИБИТОРА ДЛЯ ЗАЩИТЫ ОТ
КОРРОЗИИ ВОДЯНОГО ОХЛАЖДАЮЩЕГО УСТРОЙСТВА В
ПРОЦЕССЕ АБСОРБЦИОННОЙ ОЧИСТКИ ГАЗОВ**

02.00.08 – Химия и технология нефти и газ

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № B2024.4.PhD/T4363.

Докторская диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердака.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Бекназаров Хасан Сойибназарович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Сайдахмедов Шамшидинхужа Мухторович доктор технических наук, профессор Игамкулова Наргиса Абдувалиевна кандидат химических наук, доцент
Ведущая организация:	Каршинский государственный технический университет

Защита диссертации состоится 31 мая 2025 года в 9⁰⁰ часов на заседании научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском инженерно-технологическом институте (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+99865)223-78-84, факс: (+99865)223-78-84, email: bmti_info@edu.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрирован под номером №355). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан 17 мая 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 1 от 24 марта 2025 года.)

С.Ф.Фозилов
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

А.Т.Олтиев
Ученый секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, доцент

Х.Б.Дустов
Председатель научного разового
семинара при научном совета по
присуждению учёной степеней,
доктор химических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время одним из наиболее эффективных способов предотвращения коррозии металлов в различных агрессивных средах в мире является использование ингибиторов коррозии. Известно, что основой большинства производственных устройств является металл и конструкции на его основе, и спрос на них растет с каждым годом. Обеспечение устойчивости промышленных металлоконструкций, то есть защита от коррозии, стало одной из актуальных проблем сегодняшнего дня. Следует отметить, что используемые ингибиторы коррозии должны быть как можно более низкой концентрации и экологически чистыми, при этом важно использовать экономически дешевые ингибиторы.

В быстроразвивающихся странах мира, с целью снижения последствий коррозии на предприятиях по переработке нефти и газа проводятся исследования по совершенствованию новых методов и технологий синтеза ингибиторов, получению ингибиторов различного состава и их композиций с целью обеспечения соответствия экологическим требованиям. В связи с этим особое внимание уделяется созданию ингибиторов и антикоррозионных покрытий с высокими техническими свойствами, предотвращающими коррозию металлов, с использованием имеющегося сырья.

В нашей республике достигнуты научные и практические результаты по созданию экологически безвредных ингибиторов коррозии из ингибиторов коррозии, полученных на основе местного сырья и вторичных соединений, наряду с высокой эффективностью ингибирования в предотвращении коррозии металлов в различных агрессивных и водяных системах охлаждения или нагрева нефтегазовой и химической промышленности. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены важные задачи, направленные на "Создание технологий получения импортозамещающей продукции из местного сырья и вторичных ресурсов".¹ В связи с этим важное значение имеет производство экономически эффективных и экологически безопасных ингибиторов коррозии и постоянное совершенствование существующих технологий для предотвращения коррозии металлических конструкций.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы," Постановлениях Президента

Республики Узбекистан № ПП-4805 от 12 августа 2020 года "О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки в

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года "О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы".

области химии и биологии" и № ПП-3264 от 29 августа 2017 года "О мерах по совершенствованию экспортно-импортной деятельности организаций химической промышленности," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике VII «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. Научные исследования о создании ингибиторов коррозии и исследовании их ингибирующих свойств проводили ученые П.Сингх, Э.Э.Эбенсо, Л.О.Оласунканми, И.Б.Оботь, С.Пол, И.Колей, С.А.Муравьева, В.Г.Мельников, В.В.Егоров, Ю.И.Кузнецов, Г.Ю.Казанская, Н.В. Цирульникова, Р.Р.Аннанд, Р.М.Херд, Н.Хакерман, В.Ю.Чернов из стран СНГ И.Л.Розенфельд, Д.Н.Борисов, А.В.Агафонкин, Г.Н.Данилова, А.Р.Фархутдинова, О.А.Чепкасова, Ю.И.Кузнецов, В.И.Вигдорович, А.И.Федотова, В.И. Левашова, З.А. Таджиходжаев, в том числе учёные Узбекистана Х.С.Бекназаров, А.Т.Джалилов, Р.С. Тиллаев, Т.Д.Сиганов, Ф.К.Курбанов, А.Дж. Холиков, Х.И.Акбаров, А.Икрамов, Д.Юсупов, Х.И.Кадыров, З.И. Нуриллоев, А.К.Нарзуллаев, Н.Б.Эшмаматова, Н.Ёдгоров и другими учеными.

Научные исследования, проводимые этими учеными, направлены на создание нового поколения ингибиторов коррозии на основе природного сырья и промышленных продуктов, на теоретическое и практическое обоснование их применения в различных агрессивных средах, а также на совершенствование технологий производства ингибиторов коррозии.

